

DAVLAT BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLAR: SIYOSIY ISHTIROK VA FAOLLIK MASALALARI

Shaxnoza Xolmaxamatova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda siyosiy boshqaruv va uning gender xususiyatlari, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi faoliyati, stereotiplarning saqlanib qolganligi, xotin-qizlarning siyosatdan uzoqlashuviga, ijtimoiy murakkab vaziyatlar tufayli faolligi pasayishiga sabab bo'ladigan omillar, ularning davlat va jamiyat hayotida muayyan bir qarshiliklarga sabab bo'ladigan muammolar va masalalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Davlat boshqaruvi, stereotip, siyosiy faoliyat, siyosiy madaniyat, mentalitet, milliy xususiyatlar, gender xususiyat.

Insoniyat ongida, tafakkurida qadimdan shakllangan bir holat mavjudki, unga ko'ra, ijtimoiy, siyosiy hayotda, davlat va jamiyat boshqaruvida erkaklarning ustunligi va unga qarama-qarshi jins vakillarining esa ularga bo'ysinishi, jismoniy kuchi va imkoniyatlariga bog'liq holda, ikkinchi va uchinchi darajali rollarni bajarishi lozim, degan qarashlardir. Shuningdek, yana bir bor insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, erkaklarga ov qilish, og'ir mehnatlarni qilish, oila muhofazasi bilan so'ngi nuqta - davlat va jamiyat boshqaruviga qadar vazifalarni o'z zimmasiga olgan edi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning jamiyat tafakkuridagi obrazi esa asosan uyni va ro'zg'orni ozoda tutish va bolalar tarbiyasi bilan assotsiatsiya qilinib kelinmoqda.

Biroq, dunyoda har doim ham ma'lum bir istisnoli holatlar ham bo'ladiki, ular ichida ba'zi bir shaxslarning o'z jinsidan qat'iy nazar jamiyat tafakkuriga singdirilgan bunday qarashlarga rozi bo'lmaslik, deyish mumkin. Aynan shunday turdagi shaxslarning ruhiy va amaliy faoliyati, qarshiligi, kerak bo'lsa, isyoni va tug'yoniy evaziga tarixda uchragan va kamyob siyosatchi ayol obrazi bugungi kunning nisbiy ko'p uchraydigan realligiga aylandi.

Xotin-qizlar va hokimiyat muammosi har doim ham dolzarb bo'lgan va bugungi kunda ham u dolzarbligini yo'qotmagan. Chunki, tarixning har qanday davriga qaraydigan bo'lsak, albatta xotin-qizlarning hokimiyatga ega bo'lishlari uchun u yoki bu darajada rasmiy va norasmiy cheklovlarga duch kelganligiga guvoh bo'lamiz. Lekin, mental jihatdan shuni ham qayd etishimiz lozimki, ko'plab sharq jamiyatlarida "siyosat va ayol" mavzusi ko'pincha salbiy yondashuvni ham shakllantiradi, hattoki, diniy qarashlarga asoslangan ba'zi jamiyatlarda g'azabni ham paydo qiladi. Chunki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, minglab, millionlab odamlarning tafakkurida xotin-

qizlarning o'rnini oshxonada va bolalar tarbiyasida degan ishonch o'ziga xos stereotipga aylangan.

Ana endi, bugungi kun realligidan kelib chiqib, o'z oldimizga savol qo'yaylik, xotin-qizlar siyosat bilan shug'ullanishlari kerakmi? Bugungi kundagidek, xotin-qizlarning siyosatda ommaviy ishtiroki bilan bog'liq masalalar qachon paydo bo'la boshladi. Bunga ko'plab misollarni ham sharq va ham g'arb jamiyatlarida ham uzoq tarixdan va ham yaqin tarixdan keltirish mumkin.

Adolat nuqtai-nazaridan aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo o'lkalarida xotin-qizlar nafaqat siyosatda ishtirok etganligi, balki ularning mamlakatlarni, jamiyatlarni boshqarganligi haqida ham tarixiy faktlarni ko'plab keltirish mumkin. Bularga misol tariqasida butun Turon xalqlari uchun momo bo'lmish To'marisni, keyinchalik Xorazmshoxlar, Temuriylar davlatlaridagi ayol arboblarni keltirish mumkin. Ammo, zamonaviy ayol va uning siyosatdagi ishtiroki, qadim tarixdan keskin farqlanishini ham alohida aytib o'tish lozim.

Zamonaviy siyosat va undagi xotin-qizlarning keng ishtiroki, hokimiyatning turli tarmoqlarida faoliyat yuritishi, vazir yoki korxonalar rahbari, davlat yoki hukumat rahbari vazifalarida ishlashi bilan bog'liq fundamental siyosatni aksariyat siyosatshunoslar, tarixchilar, mutaxassislar fransuz inqilobi va uning Yevropada kengayishi bilan bog'laydilar. Shuningdek, asosiy fundamental siyosiy o'zgarishlar xotin-qizlarning Yevropadagi ko'plab mamlakatlarda saylov huquqining qo'lga kiritishi bilan bog'liqligidir. 1791 yil Fransuz inqilobining ayni avjiga chiqqan paytida taniqli yozuvchi Olimpiya de Guj quyidagi bashoratli istakni bayon qilgan edi: "Agar ayol shoxsupaga chiqish huquqiga ega bo'lsa, u (siyosiy) minbarga chiqishga ham haqli". bunday ehtiyotsiz bayonot yozuvchining hayoti uchun ko'plab noxushliklarni keltirgan edi.

Siyosat va undagi xotin-qizlar haqida gapirganda, quyidagi savolga javob topish ham muhim! Ayol va erkak rahbarning farqi nimada? Jins davlat boshqaruv uslublari va manerasiga ta'sir ko'rsatadimi?

Sohani tadqiq qiluvchi mutaxassislarning aksariyati erkak-rahbarlarda kommunikatsiya hamda boshqa insonning hissiyotlari, kechinmalari va emosional holatini tushunish, his qilish hamda ularga hamdardlik bildirish qobiliyati va darajasining past bo'lishini, tajovuzkorlikka moyil, konservativ ruhiyatga ega ekanligini doimiy ta'kidlab keladilar. Aksincha, xotin-qiz rahbarlar esa ulardan farqli ravishda hissiyotli, o'z qo'l ostidagilarga, jamiyatga va xalqqa g'amxo'r, ijtimoiy hamkorlikka moyil va jamoani muvaffaqiyatli tarzda birlashtira oluvchi, xodimlarni esa murakkab vazifalarni yechish yo'lida motivatsiya bera oluvchi yetakchi ekanligi ta'kidlanadi.

Yana bir qator olimlar va ekspertlar esa erkaklarning haqiqatda ham boshqaruv jarayonida avtoritarizmga tayanishini va shu orqali o'zlarini kuchli rahbar sifatida

ko'ra olishlarini, qattiq nazorat orqali muhitni tinchlantiraman deb o'ylashlarini ta'kidlagan holda, xotin-qizlar rahbarlarning esa xodimlar fikrlarini himoya qilish va har qanday tashabbuslarni rag'batlantira oladigan "ilhom parisi" ekanligini, boshqaruvda bir muncha demokratik uslubga rioya qilishlarini isbotlaganlar. Lider xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishda jamoaning fikrini ko'prov inobatga olishi, mehnat jamoasida hamkorlik munosabatlarini rivojlantira olishi bugun ko'pchilikka ma'lum.

Dunyo miqyosida gender masalalari va siyosiy hokimiyat haqidagi bahs-munozaralar davom etayotgan ekan, mavzu ko'plab tadqiqotlarning asosiy bahsi sifatida o'rnini bo'shatishga shoshilmayotgandek. Siyosiy faoliyat sohasida erkaklar haddan tashqari ko'p vakillik qilayotgani, ayollar esa saylangan mansabdor shaxslar orasida ozchilikni tashkil etishi haqidagi faktlar, bugungi kunda nozik jins vakillarining noroziliklariga sabab bo'layotganligini ham alohida e'tirof etish joiz.

Ayniqsa, siyosiy gender stereotiplarining yo'qolmayotganligi dunyoning mana-man degan mamlakatlaridagi gender muammolarini o'rganuvchi olimlarni ham tashvishga solayotganligini ham aytib o'tish lozim. Chunki, xotin-qizlarning siyosatdagi ishtiroki ortib borayotganiga qaramay, gender stereotiplari hanuz saqlanib qolmoqda. Gender stereotiplari – bu erkaklar va ayollarning xususiyatlari, roli va xulq-atvori haqidagi tasavvurlardan hosil bo'ladigan o'tkir ijtimoiy muammo sifatida, xotin-qizlarni erkaklarga nisbatan ko'proq g'amxo'r, mehribon va hissiyotga beriluvchan deb tavsiflayotganligini aytish kerak.

Siyosat sohasida esa erkaklarga qat'iyat, talabchanlik va keskinlik xos deb qaraladi va bunday stereotiplar siyosiy liderlarga bo'lgan kutilmalarga mos kelib, xotin-qizlarga xos stereotiplar aksincha, mazkur kutilmalarga ziddir. "Olimlar aniqlashicha, ayollar ko'proq baxt va qayg'uni ifoda qilishga moyil bo'lsa, erkaklar g'azabni ko'proq namoyon etadi. Shuning uchun ayollar erkaklarga qaraganda hissiyotchanroq degan fikr noto'g'ri. Faqat har bir jins turli xil his-tuyg'ularni namoyon qilishga moyil. Ammo bu holat ayollar va erkaklar ushbu his-tuyg'ularni qay darajada his qilishi bilan bog'liqmi yoki yo'qmi, bu hanuz ochiq masala bo'lib qolmoqda". Bu xulosa Florida universitetida ayollar ko'proq hissiyotli degan stereotipni inkor etish maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatib turibdi.

Maqolaning asosiy mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Jins davlat boshqaruvi usuliga ta'sir qiladimi?" – hozircha bu savolga ilmiy asoslangan holda javob berish bir muncha mushkuldir, ammo, xotin-qizlar va erkaklar xulq-atvorida muayyan farqlar borligini, stressga chidamlilikni, nutq va ish uslubi borasida aniq misollar keltirish mumkin. Masalaga nisbatan o'z fikrini bildirgan ingliz faylasufi Francis Bacon bir paytlar shunday degan edi: "Ayollar hukmronligi barcha davrlarda ham kam uchragan; muvaffaqiyatli hukmronlik esa yanada kamroq; muvaffaqiyatli va uzoq davom etgan hukmronlik esa noyob hodisadir". Britaniya orollarida mavjud

bo'lgan yoki mavjud davlatlar tarixida taxtda 114 nafar hukmdor bo'lgan bo'lsa, ularning faqat 10 nafari ayollar bo'lgan. Bu umumiy sonning taxminan 9 foizini tashkil etadi.

Demak, umumiy xulosa tarzida aytish mumkinki, har bir insonda turli xil sifatlar uyg'unlashishi mumkin. Ideal hukmdorlar bo'lmaydi va jamiyatning bir qatlamiga yoqqan qaror boshqasiga yoqmasligi mumkin. Zamonaviy siyosatchi xotin-qizlar samimiy bo'lishga va o'zligidan qo'rqmaslikka intilayotganligiga bugun borgan sari ko'p guvoh bo'lyapmiz. Ular xayriya ishlari bilan faol shug'ullanayotganligi, mazlumlar huquqlarini himoya qilayotganliklari odatiy holga aylanib ulgurdi. Shu bilan birga, ularning ko'pchiligi (masalan, Angela Merkel) fuqarolar turmush sharoitini yaxshilash va davlatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bordi.

Demak, jins davlat boshqaruviga ta'sir qiladimi? Aniq javob – yo'q. Hech bo'lmaganda zamonaviy jamiyatda bu ta'sir deyarli sezilmaydi. Ilgari muayyan tendensiyalar mavjud bo'lgan bo'lsa, bugun ular deyarli yo'qolgan. Maqolada keltirilgan aniq misollar shaxsiy fazilatlar qanchalik muhim ekanini, ayol ham mamlakatni rivojlantirishi, erkak esa uni zaiflashtirishi mumkinligini, shuningdek, erkak ham mashhurlikka erishishi, ayol esa xalq orasida salbiy nom qozonishi mumkinligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. Tom 3. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. Tom 4. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Kholmakhatova Shakhnoza. Gender policy and issues of increasing the active participation of women in socio-political life and entrepreneurship. Innovatech: Conference on Scientific Innovations and Research www.euro-conferences.org.
6. Henry N. Public Administration and Public Affairs. Thirteenth Edition. Georgia Southern University, Routledge, 2018. 534 p.